

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH

**AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI
MAMLAKATDA TADBIRKORLIKNIRIVOJLANTIRISH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Obilov Mirkomil Rashidovich

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish.....3

Обилов Миркомил Рашидович

Совершенствование методологии развития предпринимательства в стране посредством повышения финансовой грамотности населения.....41

Obilov Mirkomil Rashidovich

Improvement of the methodology for the development of entrepreneurship in the country through increasing the financial literacy of the population81

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....87

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH

**AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI
MAMLAKATDA TADBIRKORLIKNIRIVOJLANTIRISH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.01DSc/iqt624 raqum bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Gafurov Ubaydullo Vaxabovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Abdullayev Suyun Artikovitch iqtisodiyot fanlari doktori, professor Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Rasulova Dilfuza Vallyevna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «4» 09 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; ye-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1233 raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «20» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «20» 08 dagi 86 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bek Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

N.A. Xoshimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarni boshqarish, o'z byudjetini rejalashtirish, kreditlar va investitsiyalar haqida tushunchaga ega bo'lish hamda moliyaviy xavflarni tushunish kabi bilimlar iqtisodiy barqarorlikka erishish va qashshoqlikni bartaraf etishda muhimdir. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi. Shunga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilib, "aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bilan odatda davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi maxsus davlat idoralari yoki tashkilotlari shug'ullanadilar. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida ushbu majburiyat Moliyaviy savodxonlik va ta'lim bo'yicha komissiya (FLEC), Avstraliyada Moliyaviy axborot xizmati (FIS), Kanadada Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarini himoya qilish xizmati (FCAC), Buyuk Britaniyada Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqarma (FSA) zimmasiga yuklatilgan"¹. Bu esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassisleri tomonidan moliyaviy savodxonlikning mazmun-mohiyati va uning darajasini oshirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, moliyaviy savodxonlikning mamlakatda moliyaviy xizmatlar sohasi hamda moliyaviy bozorining rivojlanishiga, qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga ta'siri, fuqarolarning o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish yo'llari, moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash, kichik biznes subyektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish, mamlakatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish, aholida ajratilayotgan kredit mablag'larini o'zlashtirish, oddiy moliya hisobotlarini yuritish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish, xususan, 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini "Xalq IPO"ga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-son "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida moliyaviy savodxonlikni oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹ Шибаев С.Р., Шадрина Ю.А. Зарубежный опыт повышения финансовой грамотности населения // Финансы и кредит, 24 (648), 2015. – С.28.

2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida aholining tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan “Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi” da aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bu boradagi ko‘plab nazariy jihatlarni, jumladan: aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta‘siri, uni baholashning uslubiy asoslari, moliyaviy savodxonlik darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, ularni rag‘batlantirish va tartibga solish mexanizmlari kabi dolzarb masalalarning ilmiy asoslarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-son “Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yirik xalqaro tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlari, jumladan, moliyaviy savodxonlik masalalari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti qoshida faoliyat ko‘rsatuvchi Avstraliya pedagogik tadqiqotlar kengashi (ACER), Niderlandiya milliy pedagogik o‘lchov instituti (CITO), AQSh pedagogik test xizmati (ETS), Yaponiyadagi Ta‘lim sohasidagi milliy tadqiqotlar instituti (NIER), AQSh Vestat tashkiloti (WESTAT) hamda ta‘lim sohasidagi boshqa nufuzli tashkilotlarning faol ko‘magida ishlab chiqilgan PISA tadqiqotlari, Jahon banki (World Bank), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Global moliyaviy savodxonlik markazi (GFLEC), NAFI tahlil markazi (Rossiya Federatsiyasi), Kembridj universiteti (University of Cambridge), National Bureau of Economic Research (AQSh), American economic association (AQSh) kabi xalqaro tashkilot va ilmiy markazlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: moliyaviy bilim va ko'nikmalarni oshirish natijasida kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari oshganligi aniqlangan (OECD Financial Education Network, Fransiya); moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazilgan hududlarda yangi ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni ko'payganligi asoslangan (World Bank Development Research Group, AQSh); ommaviy axborot vositalarida va raqamli platformalarda moliyaviy ma'rifat kampaniyalarini kuchaytirish natijasida aholining tadbirkorlik faoliyatiga kirishish istagi baholangan (Asian Development Bank Institute, Yaponiya); maktab va oliy ta'lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik modullarini integratsiya qilish kichik biznes boshlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kapitalni shakllantirish qobiliyatini oshirishi asoslangan (Centre for Financial Capability, Buyuk Britaniya); ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun mo'ljallangan moliyaviy ta'lim dasturlari ishtirokchilarining biznes-reja tuzish va kredit olish darajasi yaxshilanganligi aniqlangan (International Finance Corporation, AQSh); raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha o'quv kurslarini o'tagan aholining o'z biznesini elektron savdo platformalarida muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishi asoslangan (UNCTAD Entrepreneurship Programme, Shveysariya).

Dunyoda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarining natijadorligini ilmiy asosda o'lchash va monitoring qilish usullari; moliyaviy bilim darajasi bilan yangi biznes ochish, uni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish; mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi vositalar yordamida moliyaviy ma'rifatni kengaytirish strategiyalari; gender va yosh toifalariga moslashtirilgan moliyaviy ta'lim modellarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish; aholi orasida moliyaviy qaror qabul qilish sifatini oshirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish; soliq, kredit va grant siyosatlarini moliyaviy ta'lim tashabbuslari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aholi moliyaviy savodxonligining iqtisodiy mazmuni va uni oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Dartmut kolleji professori Annamariya Lusardi (Dartmut kolleji), Olivia S. Mitchell (Pensilvaniya universiteti), Vilsa Curto (Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi) yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik masalalari²; Eva Mpata, Naomy Koske (Keniya universiteti) tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikning o'zaro bog'liqligi³; Majid

² Lusardi, Annamaria, Olivia S. Mitchell, and Vilsa Curto. "Financial literacy among the young." *Journal of consumer affairs* 44.2 (2010): 358-380.

³ Mpaata, Eva, Naomy Koske, and Ernest Saina. "Does self-control moderate financial literacy and savings behavior relationship? A case of micro and small enterprise owners." *Current Psychology* 42.12 (2023): 10063-10076.

Murad (Jiangsu Universiteti), Cai Li (Jiangsu Universiteti), Muhammad Munir (Narowal Universiteti), Sheikh Farhan Ashraf (Jiangsu Universiteti), Surhbi Arora (Panjob Universiteti) moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik xulq-atvorining o'zaro ta'siri⁴; Ojogbo (Nigeriya) moliyaviy savodxonlikning bitiruvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalariga ta'siri⁵; Emmanuel Kojo (Janubiy Afrika Respublikasi Venda Univerisiteti) moliyaviy savodxonlik va yoshlar tadbirkorligi⁶; Nikolaos D. Philippas va Christos Avdoulas (Gretsiya) Z avlod talabalarining moliyaviy savodxonligi⁷; Mohamad Fazli Sabri (Putra Univesiteti, Malayziya), Maurice MacDonald (Kanzas Universiteti, AQSH) kollej talabalarining moliyaviy xulq-atvori⁸; Sang-Hee Sohn, So-Hyun Joo, John E. Grable, Seonglim Lee, Minjeung Kim (Janubiy Koreya) Janubiy Koreya yoshlarining moliyaviy ijtimoiylashuvi⁹; Stolper, Oscar, Andreas Walter (Germaniya Mtaburg universiteti) moliyaviy xulq-atvor¹⁰; Al-Mamary, Yaser Hasan Salem (Saudiya Arabistoni) Saudiya Arabistonida talabalarning tadbirkorlik xulq-atvorini shakllantirish¹¹ va shu kabi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning holati, o'ziga xos xususiyatlari va uni oshirish masalalari Vaxabov A.V., Vaxobov A.V., Toshmatov Sh.A., Xaydarov N.X., G'afurov U.V., Dusmuhamedov O.S., Dusmuxamedova Sh.A. kabi olim va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan¹². Biroq, ushbu tadqiqotlarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁴ Murad, Majid, et al. "The influence of entrepreneurial passion in the relationship between creativity and entrepreneurial intention." *International Journal of Global Business and Competitiveness* 16.1 (2021): 51-60.

⁵ Ojogbo, L. U., et al. "Financial literacy and development of entrepreneurial intentions among graduates of selected tertiary institutions in Nigeria." *Int. J. Res. Pub. Rev* 3 (2022): 1052-1061.

⁶ Kojo Oseifuah, Emmanuel. "Financial literacy and youth entrepreneurship in South Africa." *African journal of Economic and management studies* 1.2 (2010): 164-182.

⁷ Philippas, Nikolaos D., and Christos Avdoulas. "Financial literacy and financial well-being among generation-Z university students: Evidence from Greece." *Financial literacy and responsible finance in the FinTech era*. Routledge, 2021. 64-85.

⁸ Sabri, Mohamad Fazli, and Maurice MacDonald. "Savings behavior and financial problems among college students: The role of financial literacy in Malaysia." *Cross-Cultural Communication* 6.3 (2010): 103-110.

⁹ Sohn, Sang-Hee, et al. "Adolescents' financial literacy: The role of financial socialization agents, financial experiences, and money attitudes in shaping financial literacy among South Korean youth." *Journal of adolescence* 35.4 (2012): 969-980.

¹⁰ Stolper, Oscar A., and Andreas Walter. "Financial literacy, financial advice, and financial behavior." *Journal of business economics* 87 (2017): 581-643.

¹¹ Al-Mamary, Yaser Hasan Salem, et al. "Factors impacting entrepreneurial intentions among university students in Saudi Arabia: testing an integrated model of TPB and EO." *Education+ Training* 62.7/8 (2020): 779-803.

¹² Vaxabov A.V. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma / A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, N.X. Xaydarov, A.V. Vaxobov. – Toshkent: Baktria press, 2013, 288 b.; Дусмухамедов О.С., Дусмухамедова Ш.А. Аҳолининг молиявий саводхонлигини баҳолашнинг назарий асослари // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. – 43-52-б.

Tadqiqotning maqsadi aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uni belgilovchi asosiy jihatlarni aniqlash va muayyan tizimga solish;

aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tavsifini ochib berish;

aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning ilmiy-uslubiy masalalarini o'rganish, taraqqiyotning hozirgi bosqichi xususiyatlari asosida takomillashtirish;

O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligi darajasining holatini tahlil qilish asosida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishdagi tutgan o'rnini baholash;

aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining ta'sirini tadqiq etish;

aholi shaxsiy jamg'armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash hamda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning o'zaro ta'sirini namoyon etuvchi iqtisodiy hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, monografik bayon usuli, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik muhitiga ta'sirini baholashda institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda xulq-atvor iqtisodiyoti qoidalariga asoslangan holda aholining moliyaviy bilimlarini integratsiya qiluvchi institutsional muhit tahlili orqali moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik faoliyati rivojiga ta'sirini baholashning kompleks institutsional-ijtimoiy modeli aholining moliyaviy bilimlari va tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlovchi indikatorlar asosida takomillashtirilgan;

tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va moliyaviy savodxonlikning o'zaro ta'sirchanligini baholash uslubi kompozit indekslar nazariyasi hamda amaliy moliyaviy analiz usullari asosida moliyaviy bilimlar, moliyaviy xulq-atvor, investitsion qarorlarni qabul qilish qobiliyati va tadbirkorlik rivoji o'rtasidagi uyg'unlikni baholash imkonini beruvchi kompleks integral indeksni qo'llash orqali takomillashtirilgan;

moliyaviy bilimlarni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilish mexanizmlarini kognitiv iqtisodiyot nazariyasi, inson kapitali nazariyasiga ko'ra modellashtirish asosida moliyaviy ta'limning iqtisodiy motivatsiyaga ta'sirini

o'rganish, aholida moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini kuchaytirish hamda tadbirkorlikka moyillikni oshirish orqali aholi moliyaviy savodxonligini rivojlantirish dasturlarining natijadorligini baholash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar moliyaviy savodxonlik rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoniga nomarkazlashgan boshqaruv nazariyasi va jamoaviy taraqqiyot modellarini uyg'unlashtirgan holda mahalliy darajada moliyaviy ta'lim va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish asosida davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikning iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uni belgilovchi asosiy jihatlar aniqlangan va muayyan tizimga solingan;

aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tavsifi ochib berilgan;

aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari o'rganilgan hamda taraqqiyotning hozirgi bosqichi xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

aholi moliyaviy savodxonligi va aholi turmush farovonligining bog'liqligi ochib berilgan;

aholi shaxsiy jamg'armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari asoslangan;

aholining raqamli moliyaviy savodxonligi va raqamli moliyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan;

aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda mahallabay ishlash tizimi samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan;

moliyaviy savodxonlik doktrinasining evristik modeli taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi kabi rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalardan mamlakatda aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy apparatini takomillashtirish hamda mavzuga oid maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy takliflar va tavsiyalardan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturiy

hujjatlarda, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy takliflar asosida:

moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik muhitiga ta'sirini baholashda institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda xulq-atvor iqtisodiyoti qoidalariga asoslangan holda aholining moliyaviy bilimlarini integratsiya qiluvchi institutsional muhit tahlili orqali moliyaviy savodxonlikning tadbirkorlik faoliyati rivojiga ta'sirini baholashning kompleks institutsional-ijtimoiy modeli aholining moliyaviy bilimlari va tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlovchi indikatorlar asosida takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 3-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 01/00-03/10-5226-sonli, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2025-yil 7-yanvardagi 01-04-5/91-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida kambag'allikdan chiqqan oilalarning ijobiy tajribasini ommalashtirish, ularning ijtimoiylashuviga, bandligiga, shuningdek, moliyaviy mustaqilligiga ko'maklashishga o'z hissasini qo'shgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish mexanizmi yaratilgan;

tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va moliyaviy savodxonlikning o'zaro ta'sirchanligini baholash uslubi kompozit indekslar nazariyasi hamda amaliy moliyaviy analiz usullari asosida moliyaviy bilimlar, moliyaviy xulq-atvor, investitsion qarorlarni qabul qilish qobiliyati va tadbirkorlik rivoji o'rtasidagi uyg'unlikni baholash imkonini beruvchi kompleks integral indeksni qo'llash orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 3-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 01/00-03/10-5226-sonli, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2025-yil 7-yanvardagi 01-04-5/91-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida kambag'al oilalarni baholashning yagona savolnomasi ishlab chiqilgan va ularning ijtimoiy portreti shakllantirilgan;

moliyaviy bilimlarni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilish mexanizmlarini kognitiv iqtisodiyot nazariyasi, inson kapitali nazariyasiga ko'ra modellashtirish asosida moliyaviy ta'limning iqtisodiy motivatsiyaga ta'sirini o'rganish, aholida moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini kuchaytirish hamda tadbirkorlikka moyillikni oshirish orqali aholi moliyaviy savodxonligini

rivojlantirish dasturlarining natijadorligini baholash imkonini yaratish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 3-bandi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 01/00-03/10-5226-sonli, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2025-yil 7-yanvardagi 01-04-5/91-sonli ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Biznesga birinchi qadam” dasturini amalga oshirish, kambag‘al oilalarga subsidiyalar ajratish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi tizim joriy qilingan;

O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar moliyaviy savodxonlik rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichlari taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 12-bandi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 01/00-03/10-5226-sonli, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2025-yil 7-yanvardagi 01-04-5/91-sonli ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangiliklarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aholi orasida moliyaviy bilimlarni oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilib, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va maxsus nashrlar orqali moliyaviy savodxonlik bo‘yicha tushuntirish ishlari amalga oshirilishida hamda 2030-yilga qadar moliyaviy savodxonlik darajasining o‘shish prognozi asosida tizimli rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilib, moliyaviy barqarorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta ilmiy monografiya va 24 ta maqola e‘lon qilingan bo‘lib, ularning 21 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e‘lon qilingan bo‘lib, shu jumladan, 5 tasi respublika, 3 tasi OAK tavsiya etgan chet el jurnallarida va xorijda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 229 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aholi moliyaviy savodxonligi va uni darajasini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida aholi moliyaviy savodxonligining iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillari, aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning uslubiy asoslari o‘rganilgan.

Insonlarning moliyaviy xatti-harakatlariga moliyaviy savodxonlikning ta‘sirini o‘rganishda, avvalo, “moliyaviy bilim” va “moliyaviy savodxonlik” tushunchalari o‘rtasidagi farqni anglab olish muhim. Moliyaviy savodxonlik - bu shaxs va jamiyat farovonligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim ko‘nikma. Byudjetlashtirish, jamg‘arma va sarmoya tikish kabi asosiy moliyaviy tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lish orqali odamlar o‘z mablag‘lari va kelajak uchun reja tuzishlari haqida asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Moliyaviy savodxonlikning aksariyat ta‘riflarida moliya bozorlari, ularning faoliyati va qoidalari, professional bozor ishtirokchilarining rollari va faoliyati, shuningdek, moliyaviy vositalar va mahsulotlar haqida bilimlarga ega bo‘lish ta‘kidlanadi¹³. Muallifning fikricha, moliyaviy savodxonlik ikkita unurning o‘zaro uyg‘unlashuvidan tashkil topadi: 1) mavjud moliyaviy mahsulotlar, ularning ishlab chiqaruvchilari/sotuvchilari haqida ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslar va ma‘lumot va maslahat xizmatlarini olish uchun mavjud kanallar; 2) iste‘molchilarning ushbu ma‘lumotlardan hisob-kitoblarni amalga oshirish, xavflarni baholash, turli moliyaviy xizmatlarning afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslash kabi qaror qabul qilish jarayonlarida foydalanish qobiliyati.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tahlillar va maxsus iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif moliyaviy savodxonlikning maqbul darajasini shakllantirishga xizmat qiluvchi xarajat va daromadlarni rejalashtirish, xarajatlarni samarali boshqarish, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, moliyaviy risklar va firibgarlikdan himoyalani, farovon kelajak va qarilikni ta‘minlash tamoyillarini farqlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

Moliyaviy savodxonlik keng termin bo‘lib, pulni boshqarish bilan bog‘liq bir nechta muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlarning ba‘zilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Jamg‘arma va qarz olish: kelajakdagi xarajatlar uchun pulni qanday tejashni va kerak bo‘lganda kredit olishni o‘rganish. Bunda byudjetlashtirish va rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish ham nazarda tutiladi.

¹³ Lusardi A., Mitchell O. S. The economic importance of financial literacy: Theory and evidence //American Economic Journal: Journal of Economic Literature. – 2014. – T. 52. – №. 1. – C. 5-44.



1-rasm. Moliyaviy savodxonlikning asosiy tamoyillari¹⁴

2. Shaxsiy byudjetlashtirish: Daromadlar asosida shaxsiy byudjet tuzish va uni boshqarish.

3. Iqtisodiy masalalarni tushunish: Iqtisodiy tendensiyalar, dinamika va moliyaviy qarorlarga ta'sirini bilish.

4. Moliyaviy tushunchalarni bilish: Foiz stavkalari, inflyatsiya, investitsiya opsiyonlari va boshqalar kabi atamalar bilan tanishish.

5. Moliyaviy xizmatlardan xabardorlik: Bozorda mavjud bo'lgan turli xil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan xabardor bo'lish.


6. Investitsiya strategiyalari: Investitsiya usullarini va turli xil investitsiya turlari bilan bog'liq xatarlarni tushunish oqilona investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun juda muhimdir.

Shaxsning moliyaviy xulq-atvorini uning asosiy moliyaviy masalalarini boshqarishga bo'lgan yondashuvi, jumladan, jamg'arma odatlari (daromad va xarajatlarga nisbatan) va investitsiya strategiyalari orqali baholash mumkin. Moliyaviy xulq-atvor, shuningdek, shaxsning moliyaviy mahsulotlarni sotib olishdagi ishtiroki sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin, masalan, investitsiyalarning qancha foizi bozorda, shu jumladan obligatsiyalar, veksellar, repolar, aksiyalar, xedj fondlari, oltin, chet el valyutasi va muddatli depozitlar. Moliyaviy savodxonlikka ta'sir qiluvchi boshqa omillarga moliyaviy munosabat va moliyaviy ta'lim kiradi (2-rasm).

Moliyaviy savodxonlik mamlakatlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni oshirish xalqaro iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lishi zarur.

Tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari moliyaviy savodxonlik, moliyaviy farovonlik, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy xizmatlardan foydalanishdir. Bu sohalar o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda inson hayotining moliyaviy tomonini sezilarli darajada aks ettiradi (3-rasm).

¹⁴ Muallif tomonidan shakllantirilgan.



2-rasm. Moliyaviy savodxonlik omillari¹⁵

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan hisoblangan moliyaviy savodxonlikning umumiy balli 1 dan 21 gacha bo'lgan murakkab qiymatdir. Ushbu ball uchta komponentni birlashtirish orqali olinadi: moliyaviy bilim, moliyaviy xulq-atvor va moliyaviy munosabat.

Maksimal ball shaxsning moliyaviy tushunchalarni yaxshi tushunishi va moliyaviy qarorlarni qabul qilishda oqilona tamoyillarga rioya qilishidan dalolat beradi.


Har bir ball mezonini shaxsning moliyaviy xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun mo'ljallangan bir qator savollarga javoblar asosida hisoblanadi.

Moliyaviy bilimlar moliyaviy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, odamlarga moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqqoslash va asosli moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Asosiy moliyaviy tushunchalarni bilish va moliyaviy vaziyatlarda arifmetik ko'nikmalardan foydalanish qobiliyati iste'molchilarga moliyaviy masalalarni ishonchliroq boshqarish va ularning moliyaviy farovonligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan moliyaviy yangiliklar va hodisalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

¹⁵Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish va oqilona moliyaviy xulq-atvorni targ‘ib qilish bo‘yicha davom etayotgan sa‘y-harakatlar doirasida pulga nisbatan ijobiy xulq-atvor va munosabatlarni rag‘batlantirishni maqsadga muvofiq.

Muallif bu borada ikki yo‘nalishda ishlashni tavsiya qiladi: jamg‘armalarni rag‘batlantirish va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish. Yetarlicha bilim va oqilona harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lganda ham, insonning qarorlariga uning ma‘lum moliyaviy masalalarga bo‘lgan munosabati ta‘sir qiladi. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining shakllanishi va ularning uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishi bir qancha o‘zaro bog‘liq omillar ta‘sirida ro‘y beradi.



3-rasm. Moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari¹⁶

Mazkur tahlilning asosiy maqsadi — moliyaviy savodxonlik, institutsional va ijtimoiy muhit, xulq-atvor omillari hamda qo‘llab-quvvatlovchi institutsiyalarning yangi bizneslarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta‘sirini aniqlashdan iborat (1-jadval).

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida tadbirkorlik faoliyati jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, yangi bizneslarning shakllanishi, ularning barqaror faoliyat yuritishi va iqtisodiy o‘shishga qo‘shadigan hissasi ko‘plab omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu omillar ichida moliyaviy savodxonlik, institutsional va ijtimoiy muhit, psixologik (xulq-atvor) xususiyatlar hamda qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmalar asosiy determinantlar sifatida ajralib turadi. Ushbu tadqiqot mazkur

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

omillarni tizimli tarzda tahlil qilish, ularning tadbirkorlik faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

1-jadval

Moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi aloqalarni baholovchi institutional-ijtimoiy model¹⁷

Kategoriya	Indikatorlar / Elementlar	Ta'rifi	Modeldagi o'rni / Funktsiyasi
Moliyaviy Savodxonlik	Moliyaviy bilimlar darajasi	Byudjet, kredit, investitsiya, soliq, sug'urta kabi asosiy tushunchalarni qamrab oladi	Tadbirkorlikni boshlashda ongli va riskga asoslangan qaror qabul qilishni ta'minlaydi
	Moliyaviy xatti-harakatlar	Tejamkorlik, qarzga munosabat, xarajat nazorati	Real amaliyotda bilimni qo'llashni aks ettiradi
	Moliyaviy maqsadlar mavjudligi	Yig'im, investitsiya yoki qarzlarni qisqartirish kabi uzoq muddatli rejalashtirish	Xulq-atvor iqtisodiyoti doirasida motivatsion indikator
Institutsional Muhit	Qonunchilik va tartibga solish sifati	Tadbirkorlikni tartibga soluvchi qonunlar, huquqiy aniqlik	Tadbirkorning huquqiy ishonchini ta'minlaydi
	Mulk huquqlarini himoya qilish	Aktivlar ustidan egalik va ularni himoyalash kafolatlari	Rivojlanayotgan bozorlar uchun muhim ishonch elementi
	Korrupsiya darajasi	Norasmiy to'lovlar, qonunbuzarliklar	Past korrupsiya darajasi tadbirkorlikni rag'batlantiradi
Ijtimoiy Muhit	Ijtimoiy kapital	Ishonch, hamkorlik madaniyati, tarmoq aloqalari	Kooperatsiya orqali resurslarga kirish imkonini oshiradi
	Madaniy qadriyatlar	Ishbilarmonlikka ijobiy munosabat, muvaffaqiyat qadriyatlari	Tadbirkorlik motivatsiyasini kuchaytiradi
Xulq-Atvor Omillari	Riskka tayyorlik	Muvaffaqiyatga erishish uchun moliyaviy xavflarni qabul qilish	Innovatsion biznes boshlash imkonini aniqlaydi
	Kognitiv cheklovlar	Moliyaviy noto'g'ri qarorlar sabablari (psixologik xatolar)	Moliyaviy savodxonlikni o'zlashtirishdagi psixologik to'siqlar
Qo'llab-quvvatlovchi Institutsiyalar	Moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati	Banklar, mikromoliya, investitsiya institutlari	Tadbirkorlik uchun kapitalga kirish sharoitlarini yaxshilaydi
	Moliyaviy ta'lim tizimi	Maktab, oliy ta'lim va kurslar orqali moliyaviy bilim berish	Uzoq muddatli moliyaviy xulqni shakllantirish
Natijaviy O'zgaruvchilar	Yangi bizneslar soni	Muayyan hududda ochilgan yangi tadbirkorlik subyektlari soni	Moliyaviy savodxonlik va muhit ta'sirining yakuniy ko'rsatkichi
	Biznesning yashab qolish darajasi	Faoliyat boshlagan bizneslarning necha foizi 2 yoki 5 yildan ortiq ishlaydi	Uzluksizlik va barqarorlikni ko'rsatadi
	Bandlik va daromadlar o'sishi	Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy ijobiy ta'sirlari	Ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikni baholovchi indikatorlar

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy savodxonlik – bu nafaqat asosiy moliyaviy tushunchalarni (byudjet, kredit, investitsiya, soliq, sugʻurta) bilish, balki ushbu bilimlarni real hayotda amaliy qoʻllash qobiliyatidir. U uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: moliyaviy bilimlar darajasi, moliyaviy xatti-harakatlar va moliyaviy maqsadlarning mavjudligi. Moliyaviy bilimlar tadbirkor uchun moliyaviy resurslarni boshqarish, risklarni baholash va rejalashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etsa, moliyaviy xatti-harakatlar ushbu bilimlarni kundalik faoliyatga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi. Moliyaviy maqsadlar esa uzoq muddatli moliyaviy intizom va barqarorlikni taʼminlovchi motivatsion omil sifatida namoyon boʻladi.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay institutsional muhit mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Bu muhit, avvalo, qonunchilik va tartibga solish sifati, mulk huquqlarini himoya qilish hamda korrupsiya darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy aniqlik va barqarorlik, mulkiy huquqlarning kafolatlanganligi tadbirkorlik subyektlari uchun ishonch muhitini yaratadi. Aksincha, yuqori korrupsiya darajasi va huquqiy noaniqlik biznes yuritish xavfini oshiradi, investitsiya faoliyatini cheklaydi va ishbilarmonlik muhitini zaiflashtiradi.

Tadbirkorlik faqat institutsional shart-sharoitlargina emas, balki ijtimoiy muhit bilan ham uzviy bogʻliqdir. Ishonch, hamkorlik madaniyati, tarmoq aloqalari kabi ijtimoiy kapital elementlari tadbirkorlarning resurslarga kirish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, jamiyatdagi madaniy qadriyatlar – muvaffaqiyatga intilish, ishbilarmonlikni ijobiy qabul qilish kabi omillar yangi biznes tashabbuslarining shakllanishiga ragʻbatlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati insonning psixologik xususiyatlari bilan ham bogʻliq. Riskka tayyorlik – yaʼni noaniqlik sharoitida ongli tarzda qaror qabul qilish va moliyaviy xavflarni qabul qilish qobiliyati – innovatsion biznes tashabbuslari uchun asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, kognitiv cheklovlar, yaʼni psixologik xatolar, notoʻgʻri moliyaviy qarorlar va yetarli maʼlumot yetishmasligi tadbirkorning ratsional qarorlar qabul qilishini cheklashi mumkin.


Tadbirkorlik subyektlarini ragʻbatlantirish va ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini taʼminlashda moliyaviy xizmatlar va taʼlim muassasalari muhim oʻrin tutadi. Banklar, mikromoliya institutlari va investitsiya tashkilotlariga kirish imkoniyati tadbirkorlar uchun kapital manbaini taʼminlaydi. Moliyaviy taʼlim esa – maktabdan tortib oliy taʼlim va qayta tayyorlash kurslarigacha – shaxslarda moliyaviy ong va intizomni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa kelgusidagi tadbirkorlik faoliyati uchun mustahkam asos yaratadi.

Moliyaviy savodxonlik, institutsional-ijtimoiy muhit, xulq-atvor omillari va qoʻllab-quvvatlovchi infratuzilmalarning uygʻunligi — tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati uchun zaruriy shart-sharoitni shakllantiradi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega boʻlishi bilan birga, oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlgan tizim sifatida qaralishi lozim. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish va ular asosida samarali siyosiy chora-tadbirlar ishlab chiqish – iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni taʼminlashning muhim yoʻnalishlaridan biridir.

Dissertatsiyaning “**Mamlakatdagi tadbirkorlik rivojlanishining aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga bog‘liqligi**” deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatda tadbirkorlikni rivojlanishining aholi moliyaviy savodxonligi bilan bog‘liq jihatlari, aholi moliyaviy savodxonligi va tadbirkorlikni rivojlantirishning uslubiy jihatlari, aholining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning hayot sifatini yuksaltirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlik imkoniyatlarini aniqlash, ulardan foydalanish hamda tadbirkorlik resurslarini samarali ishlatishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon doimo biznesni boshqarish, moliyaviy masalalar va kasbiy muammolarni hal etishni talab qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi¹⁸. Moliyaviy savodxonlik bozor agentlariga o‘z munosabatlarini yaxshilash imkonini beruvchi vositadir, chunki u qarz beruvchilar va qarz oluvchilar o‘rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiradi. Boshqacha aytganda, moliyaviy savodxonlikka shunchaki rag‘bat sifatida qaramaslik kerak, u barqaror tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim unsuridir.



4-rasm. Moliyaviy savodxonlikning konseptual modeli¹⁹

Moliyaviy savodxonlik uy xo‘jaliklarining tadbirkorlik xulq-atvoriga qanday ta’sir qilishini o‘rganish imkonini beradi. 4-rasmda moliyaviy savodxonlik uy xo‘jaliklari tadbirkorligiga uchta asosiy yo‘l orqali qanday ta’sir ko‘rsatishini tushuntiruvchi konseptual model tasvirlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik uy xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga kirishishi va tadbirkor bo‘lishga intilishiga bevosita va doimiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatishlariga ko‘ra, moliyaviy savodxonlik uy xo‘jaliklari daromadlarini sezilarli darajada oshiradi, ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi va tavakkalchilikka moyillikni kuchaytiradi.

¹⁸ Yang S., Ishtiaq M., Anwar M. Enterprise risk management practices and firm performance, the mediating role of competitive advantage and the moderating role of financial literacy //Journal of Risk and Financial Management. – 2018. – T. 11. – №. 3. – C. 35.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Taklif etilayotgan moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning o'ziga xos tamoyillarining butun majmuasini quyidagilarga birlashtirish maqsadga muvofiq:

1) uzluksizlik - ushbu tamoyil oldingi tajribani hisobga olgan holda turli yoshda o'z moliyaviy savodxonligini uzluksiz oshirishni anglatadi;

2) kommunikatsiya tamoyili - boshqa odamlar, moliyaviy institutlar va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning moliyaviy madaniyatini oshirishni anglatadi;

3) obyektiv tanlov - qaror qabul qilishdan oldin turmush darajasini oshirish omili sifatida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish masalasida potentsial foydani aniqlash zarur.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishga kontseptual yondashuvning asosiy tamoyillarini uchta asosiy yo'nalishda umumlashtirish mumkin:

1. Asosiy maqsadlar va tashabbuslarni aniqlash, shuningdek, ma'lum bir vaqt oralig'ida joriy muammolarni hal qilish uchun mos keladigan kelajakdagi tashabbuslarni rejalashtirish;

2. Moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish usullari, vositalari va o'ziga xos usullarini ishlab chiqish, ushbu maqsadlarga eng qisqa vaqt ichida erishilishiga va ustuvor maqsadlarga muvozanatli va samarali tarzda erishilishiga ishonch hosil qilish;

3. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish va muayyan faoliyatni amalga oshirishga layoqatli bo'lgan mutaxassislarni aniqlash va tanlash.

Tadqiqot ishining **“O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligi darajasi va uning tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda aholining raqamli moliyaviy savodxonligi va raqamli moliyaviy kompetentsiyalarini rivojlantirish, aholi moliyaviy savodxonligi o'sishining tadbirkorlik faoliyati va daromadlar darajasining oshishiga ta'siri, Tadbirkorlikni rivojlantirishda aholining moliyaviy savodxonligi darajasi bilan bog'liq to'sqinlik omillari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Raqamli moliyaviy savodxonlik deganda pulni tushunish, boshqarish va u haqida qarorlar qabul qilish uchun raqamli vositalardan ishonch bilan foydalanish bilimi va qobiliyatini, raqamli moliyaviy mahsulot va xizmatlarni bilishni, raqamli kompetentsiyalarga ega bo'lishni, zamonaviy raqamli qurilma va ilovalardan foydalana olishni, raqamli moliyaviy xatarlardan xabardorlik nazarda tutiladi. Raqamli moliyaviy savodxonlikning bir qator jihatlari farqlanadi:

Birinchi o'lchov - bu raqamli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni bilish bo'lib, u zamonaviy raqamli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqidagi asosiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslar internet va mobil telefonlar kabi raqamli vositalar yordamida taqdim etiladigan noan'anaviy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar mavjudligini bilishlari kerak.

Raqamli moliyaviy savodxonlikning **ikkinchi o'lchovi** raqamli moliyaviy xatarlarni anglashdir. Jismoniy shaxslar va kompaniyalar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda duch kelishlari mumkin bo'lgan qo'shimcha xatarlarni tushunishlari kerak, ular an'anaviy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bilan bog'liq xatarlarga qaraganda xilma-xil, ammo ba'zan aniqlash qiyinroq. Raqamli

moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar onlayn firibgarlik va kiberxavfsizlik xatarlari mavjudligini bilishlari kerak.

Raqamli moliyaviy savodxonlikning **uchinchi o'lchovi** - bu foydalanuvchilarning o'zlarini xavflardan qanday himoya qilishni tushunishlari bilan bog'liq moliyaviy xavflarni raqamli nazorat qilishdir. Ular spam, fishing va boshqalardan qochish uchun kompyuter dasturlari va mobil ilovalardan qanday foydalanishni bilishlari kerak. Shuningdek, ular raqamli vositalar yordamida taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlardan foydalanishda shaxsiy identifikatsiya raqami (PIN) va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni qanday himoya qilishni bilishlari kerak.

2-jadval

Kompleks integratsiyalashgan indeks modeli: moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik rivoji o'zaro ta'sirini baholash²⁰

Asosiy komponentlar	Ko'rsatkichlar (indikatorlar)	Baholash usuli / manbasi	Modeldagi vazifasi
1. Moliyaviy bilimlar	Moliyaviy atamalarni tushunish darajasi	Testlar, so'rovnomalar orqali baholash	Kognitiv tayyorgarlik darajasini aks ettiradi
	Kredit va foiz stavkalarini tushunish	Savol-javob, real hayotiy stsenariylar	Qarz boshqaruvi salohiyatini ko'rsatadi
	Moliyaviy rejani tuza olish	Amaliy topshiriqlar, simullyatsiyalar	Moliyaviy maqsadlarga erishish strategiyasi
2. Moliyaviy xulq-atvor	Budjet yuritish va nazorat qilish odatlari	Xulq-atvor so'rovlari, self-report metodikasi	Moliyaviy intizomni belgilaydi
	Tejamkorlik va zaxira shakllantirish	O'rtacha jamg'arma darajasi, milliy statistik ma'lumotlar	Moliyaviy barqarorlik indikatoridir
	Qarzdin foydalanish va unga munosabat	Kredit tarixlari, qarzdorlik koeffitsiyenti	Riskga bo'lgan munosabatni aniqlaydi
3. Investitsion qaror qabul qilish qobiliyati	Investitsion portfel tuza olish	Simullyatsiyalar, case-study asosida	Rivojlangan moliyaviy tafakkurni bildiradi
	Rivojlanayotgan bozorlarni tushunish	Yengil tahliliy topshiriqlar, testlar	Qaror qabul qilishda bilim va aniqlik
	Risk va daromad o'rtasidagi balansni anglash	Nazariy-amaliy mashqlar orqali o'lchash	Investitsion qaror sifatini ko'rsatadi
4. Tadbirkorlik rivoji	Yangi bizneslar ochilishi darajasi	Rasmiy statistik ma'lumotlar (registratsiyalar soni)	Moliyaviy savod bilan bog'liq natija
	Biznes barqarorligi (5 yillik yashab qolish koeffitsiyenti)	Davlat hisobotlari, monitoringlar	Rivojlanganlikni aks ettiruvchi indikator
	Bandlikni oshirish va daromad o'sishi	Ish o'rirlari soni, o'rtacha daromad o'sishi	Iqtisodiy o'sishga qo'shilgan hissani ko'rsatadi

²⁰ Muallif ishlanmasi.

To'rtinchi o'lchov - iste'molchilarning huquqlari va foydalanuvchilar yuqorida aytib o'tilgan xavflar qurboniga aylangan holatlarda zararni qoplash tartib-qoidalarini bilish. Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar o'z huquqlarini tushunishlari va firibgarlik yoki boshqa zararlar qurboniga aylanishsa, qayerga murojaat qilishlari va qanday kompensatsiya olishlari mumkinligini bilishlari kerak.

Aholi moliyaviy savodxonligining o'sishi uning o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish, daromad va xarajatlarini tartibga solish, turli moliyaviy instrumentlardan foydalana olish borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining kengayib va takomillashib borishini anglatar ekan, bu o'z navbatida mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyati va aholi daromadlar darajasini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Zamonaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik salohiyatining integratsiyalashgan tahlili alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'pkomponentli tizimni aniqlashda kompleks indekslar — xususan **Financial Literacy Composite Index (FLCI)**, **Entrepreneurship Development Index (EDI)** va ularning o'zaro uyg'unligini ifodalovchi **Integrated Interaction Index (III)** — asosiy analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Avvalo, **Financial Literacy Composite Index (FLCI)** shaxsning moliyaviy salohiyatini ko'rsatadigan integral ko'rsatkich sifatida taklif etiladi. Ushbu indeks quyidagi formulaga asoslanadi:

$$FLCI = W_1 \times (\text{Moliyaviy bilim}) + W_2 \times (\text{Moliyaviy xulq-atvor}) + W_3 \times (\text{Investitsion qaror qabul qilish qobiliyati}),$$
 bu yerda W_1 , W_2 va W_3 — har bir komponentga ajratilgan og'irlik koeffitsiyentlaridir. Indeksning baholash mexanizmi har bir subindikatorga 0 dan 1 gacha ball berish va ularning og'irlikli arifmetik o'rtachasini hisoblashga asoslanadi. Bunday yondashuv foydalanuvchining umumiy moliyaviy savodxonligini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi va bu esa, o'z navbatida, shaxsning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi tayyorgarlik darajasini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Keyingi ko'rsatkich — **Entrepreneurship Development Index (EDI)** — tadbirkorlik rivoji darajasini ko'rsatadigan indikator bo'lib, quyidagi tuzilmaga ega:

$$EDI = W_4 \times (\text{Yangi bizneslar soni}) + W_5 \times (\text{Biznes barqarorligi}) + W_6 \times (\text{Bandlik va daromad laro'sishi}).$$
 Bu yerda har bir subindikator tegishli statistik ma'lumotlarga asoslanib, nisbiy normallashtirish yo'li bilan o'lchanadi. Ya'ni har bir ko'rsatkich maksimal va minimal qiymatlar orasida 0–1 oraliqda standartlashtiriladi. EDI indeksi hudud yoki guruhlar kesimida tadbirkorlik rivojlanishining intensivligi, barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir darajasini empirik baholashga imkon beradi. Bu indeks makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'lamda iqtisodiy siyosatning natijadorligini baholovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu ikki asosiy indeksni o'zaro bog'lab tahlil qilish esa **Integrated Interaction Index (III)** orqali amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkichning tuzilmasi quyidagicha: $III = f(FLCI, EDI)$, ya'ni moliyaviy savodxonlik indeksi va

tadbirkorlik rivoji indeksi o'rtasidagi funksional bog'liqlik modeli. Ushbu indeks baholashda korelyatsion tahlil, regressiya modellari, shuningdek, o'zaro ta'sirga asoslangan statistik uslublar (masalan, moderatsiya, mediatsiya modellari) qo'llaniladi. Bu indeksning asosiy maqsadi — moliyaviy savodxonlik darajasi oshgan sari tadbirkorlik rivojining qanday o'zgarishini aniqlash, ya'ni ushbu ikki indikator o'rtasidagi uyg'unlikni miqdoriy tahlil qilishdir. Shunday qilib, III indeks — ikki tizimli omilning (shaxsiy moliyaviy salohiyat va iqtisodiy faollik) bir-biriga ta'sir darajasini aniqlovchi analitik vosita sifatida foydalaniladi.

Umuman olganda, FLCI, EDI va III indekslaridan foydalanish imkoniyati zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda murakkab ko'p darajali (multilevel) yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu indekslar yordamida nafaqat qo'llaniladigan samarali vositalardan biridir.

Shaxsiy moliyaviy madaniyat darajasi va tadbirkorlik salohiyati, balki ularning o'zaro uyg'unligi va sinergetik ta'siri ham empirik asosda baholanishi mumkin. Shu sababli, ushbu indekslar siyosiy qarorlar qabul qilish, ta'lim dasturlarini optimallashtirish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy qo'llaniladigan samarali vositalardan biridir.

3-jadval

indeks yondashuv jadvali²¹

Indeks nomi	Formulasi yoki tuzilmasi	Baholash mexanizmi	Izoh
Financial Literacy Composite Index (FLCI)	$W1*(\text{Bilim}) + W2*(\text{Xulq-atvor}) + W3*(\text{Invest. qaror})$	Har bi subindikator uchun 0-1 baho, keyin og'irlikli o'rtacha	Foydalanuvchining umumiy moliyaviy salohiyatini aks ettiradi
Entrepreneurship Development Index (EDI)	$W4*(\text{Yangi biznes}) + W5*(\text{Barqarorlik}) + W6*(\text{Bandlik})$	Statistika asosida nisbiy normallashtirish	Tadbirkorlik rivoji darajasini ifodalaydi
Integrated Interaction Index (III)	$f(\text{FLCI, EDI})$	Korelyatsiya, regressiya, o'zaro ta'sir modellari	Moliyaviy savod va tadbirkorlik o'zaro uyg'unligini baholaydi

Ushbu ilmiy yondashuv tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro ta'sirchanlikni baholashni yangi bosqichga olib chiqadi. Kompozit indekslar nazariyasi va amaliy moliyaviy tahlil usullarini uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan kompleks integratsiyalashgan indeks moliyaviy bilimlar, moliyaviy xulq-atvor, investitsion qaror qabul qilish qobiliyati va tadbirkorlik rivoji o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur va tizimli baholash imkonini beradi. Bu esa holatni empirik asosda tahlil qilishda yanada aniq va strategik qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatdagi moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasining mumkin bo'lgan yechimlaridan biri - bu sohada faoliyat yuritayotgan ko'ngillilar sonining ortib borayotganidir. Ko'ngillilar harakati turli xil kelib chiqish va yosh guruhlariga mansub odamlarni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi sa'y-harakat bo'lib, ular moliyaviy ta'lim berish uchun birgalikda ishlaydilar. Ushbu ko'ngillilar

²¹ To'plangan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

moliyaviy savodxonlik bilan bog‘liq bo‘lgan axborotni boshqarish, xatarlarni baholash, soliqlarni rejalashtirish, shaxsiy byudjet tuzish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy rejalashtirish kabi turli sohalarida yordam ko‘rsatadilar.

Raqamli moliyaviy savodxonlik tushunchasi “raqamli moliyaviy kompetensiyalar” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq.

4-jadval

“Raqamli moliyaviy kompetensiyalar” tushunchasining tizimlashtirilishi²²

№	Tushunchaning unsurlari	Iqtisodiy mazmuni
1	Raqamli to‘lovlar tizimi haqida tushunchaga ega bo‘lish	Mobil hamyonlar, debet kartalar, kredit kartalar va kriptovalyutalar kabi raqamli to‘lovlarning turli usullarining afzalliklari va cheklovlarini tahlil qilish imkoniyati
2	Raqamli bank platformalaridan foydalana bilish	Bank veb-saytlari va ilovalarida qanday harakatlanish, onlayn hisoblarni sozlash va mablag‘larni o‘tkazish haqida tushunchaga ega bo‘lish
3	Pul mablag‘larini boshqarish, xarajatlarni kuzatib borish	Raqamli moliyaviy vositalardan foydalangan holda xarajatlarni rejalashtirish, byudjet tuzish, nazorat qilish, moliyalarni boshqarish, shu jumladan jamg‘armalar, investitsiyalar va qarzlarni to‘lash uchun mablag‘ ajratish qobiliyati
4	Shaxsiy ma‘lumotlarni himoyalash	Raqamli ma‘lumotlarni o‘g‘irlashning turli usullarini bilish va ularning xavfsizligini qanday ta‘minlashni tushunish
5	Moliyaviy risk va daromadlilikni tushunish	Risk va daromadlilik o‘rtasidagi bog‘liqlik va ular bilan bog‘liq diversifikatsiya tamoyillarini tushunish
6	Raqamli banking	Raqamli bankingni, shu jumladan onlayn-banking, mobil banking va moliyaviy texnologiyalardan (fintex) foydalanishni bilish va tushunish
7	Investitsiya variantlarini tushunish	Investitsiyalarning turli xillarini, jumladan, diversifikatsiya, xatarlarni boshqarish, aktivlarni taqsimlash va portfelni shakllantirishning asosiy tamoyillarini tushunish
8	Sug‘urtalash	Sug‘urta mahsulotlari va ularning moliyaviy himoyani ta‘minlashdagi roli haqida tushuncha
9	Soliqqa tortish	Soliq solish, chegirmalar va hisobga olish tamoyillarini, shuningdek, turli soliq solish tizimlarining oqibatlarini bilish va tushunish
10	Kripto savodxonlik	Kriptovalyutalarni yaratish tamoyillarini tushunish, kriptovalyuta hamyonlarini ochish va to‘lovlarni amalga oshirish, birjalarda kriptoaktivlarni sotish va sotib olish

4-jadvalni tahlil qilish asosida shuni ta‘kidlash joizki, raqamli moliyaviy kompetensiyalar ham shaxsiy foydalanuvchilar, ham tadbirkorlik uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etib borgan sari, raqamli moliyaviy vositalar va xizmatlarni tushunish hamda ulardan foydalanish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kishilar o‘z moliyaviy farovonligini samaraliroq boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish va doimo o‘zgarib turadigan raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar va shaxslar raqamli moliyaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak.

Raqamli moliya qobiliyatlarini oshirish orqali jismoniy shaxslar va tashkilotlar raqamli moliyaviy muhitda yanada samarali harakat qilishlari, asosli

²² Muallif ishlanmasi.

moliyaviy qarorlar qabul qilishlari va raqobatbardosh ustunlikka erishishlari mumkin.

Raqamli moliyaviy savodxonlik va bilimlarni boshqarish moliyaviy ta'lim ekotizimini yaratishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ular odamlarga o'z moliyaviy farovonligini boshqarish uchun zarur bilim va vositalarni taqdim etadi. Raqamli moliyaviy savodxonlik va bilimlarni boshqarish orqali odamlar o'z mablag'lari haqida yanada asosli qarorlar qabul qilishlari va yanada mustaqil bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, bu moliyaviy tengsizlikni kamaytirishga, moliyaviy ommaboplikni oshirishga va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam berishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar aholining barcha qatlamlarining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirishga va odamlarda raqamli moliyaviy kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalarini yaratish yo'nalishida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Moliyaviy savodxonlik o'zgarishining kompleks monitoring tizimida ushbu ko'rsatkichlarni muntazam hisoblash va tahlil qilish nafaqat samaradorlikdagi o'zgarishlarni (muayyan sohalarda moliyaviy savodxonlikning oshishi yoki pasayishi) baholashga, balki ushbu maqsadlarga erishish uchun sarflangan resurslarni hisobga olgan holda mas'ul shaxslarning sa'y-harakatlari samaradorligini baholashga imkon beradi.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va barqaror rivojlanishi shaxsning moliyaviy savodxonligi, psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi va qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog'liq. Ushbu komponentlar asosida shakllangan kompleks model moliyaviy ta'lim dasturlarining samaradorligini empirik va nazariy asosda baholash imkonini beradi.

Birinchi asosiy komponent — moliyaviy ta'lim — iqtisodiy salohiyatning shakllanishidagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu komponentga maktab va oliy ta'limda o'rgatilayotgan moliyaviy savodxonlik kurslari kiradi, ularning asosida inson kapitali nazariyasi yotadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim va ko'nikmalar orqali iqtisodiy salohiyat oshadi. Bundan tashqari, onlayn ta'lim va hayotiy moliyaviy treninglar orqali kognitiv iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ayniqsa, yoshlarga, ayollarga yoki yangi boshlovchi tadbirkorlarga yo'naltirilgan maxsus modullar ijtimoiy ta'lim yondashuvi asosida ishlab chiqilib, ularning raqobatbardosh inson kapitali sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent — iqtisodiy motivatsiya — moliyaviy intilishni kuchaytiruvchi psixologik omillarni o'z ichiga oladi. Masalan, muvaffaqiyatga intilish darajasi kognitiv iqtisodiyot asosida psixologik tayyorgarlik mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Daromad olish istagi va erkinlik qadriyatlarini esa Maslouning inson ehtiyojlari nazariyasi asosida talqin etilib, shaxsiy moliyaviy faollikni shakllantiradi. Moliyaviy barqarorlikka erishish orzusi esa tashqi motivatsiya (extrinsic motivation) doirasida baholanadi va bu amaliy harakatlarni rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi komponent — moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyati — shaxsning iqtisodiy muhitda ongli harakat qilishi uchun zarur psixologik va analitik

tayyorgarlikni ifodalaydi. Risk va foyda o'rtasida baho bera olish, kognitiv iqtisodiyot va prospekt nazariyasi asosida o'lchanadi va bu qarorlarning aniqligini ta'minlaydi.

5-jadval

Moliyaviy bilimlarni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilish mexanizmlari va iqtisodiy motivatsiyaga ta'sirini baholovchi model²³

Asosiy komponentlar	Elementlar (indikatorlar / mexanizmlar)	Ilmiy asos (nazariya / yondashuv)	Modeldagi o'rni
1. Moliyaviy ta'lim	Maktab/oliy ta'limda moliyaviy savodxonlik kurslari	Inson kapitali nazariyasi	Bilim orqali iqtisodiy salohiyatni oshiradi
	Onlayn ta'lim va hayotiy moliyaviy treninglar	Kognitiv iqtisodiyot	O'quvchilarning qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi
	Maqsadli auditoriyalarga (yoshlarga, ayollarga, boshlang'ich tadbirkorlarga) yo'naltirilgan modullar	Ijtimoiy ta'lim yondashuvi	Raqobatbardosh inson kapitali shakllantirishga yordam beradi
2. Iqtisodiy motivatsiya	Muvaffaqiyatga intilish darajasi	Kognitiv iqtisodiyot	Tadbirkorlik faoliyatiga kirishga psixologik tayyorlik
	Daromad olish istagi va erkinlik qadriyatlarini	Inson ehtiyojlari nazariyasi (Maslow)	Moliyaviy intilishni faollashtiradi
	Moliyaviy barqarorlikka erishish orzusi	Tashqi motivatsiya (extrinsic)	Amaliy motivatsion faktor sifatida xizmat qiladi
3. Moliyaviy qaror qabul qilish	Risk va foyda o'rtasidagi baho berish qobiliyati	Kognitiv iqtisodiyot, prospekt nazariyasi	Aniq qaror qabul qilishni kuchaytiradi
	Moliyaviy axborotni qayta ishlash tezligi	Evristikalar va fikrlash xatoliklari nazariyasi	Noto'g'ri qarorlar oldini olish imkonini beradi
	Muqobil variantlarni taqqoslab tanlash salohiyati	Boshqaruv nazariyalari	Raqobatli iqtisodiy qarorlar tanlanadi
4. Tadbirkorlikka moyillik	Yangi g'oya yaratish va innovatsiyalarga ochiqlik	Shaxsiy intilishlar (entrepreneurial traits)	Moliyaviy bilim bilan uyg'unlashganda tadbirkorlikni rag'batlantiradi
	O'zining biznesini boshlash istagi	Motivatsion psixologiya	Moliyaviy ta'lim ta'sirida kuchayadi
	Tarmoq qurish va hamkorlikga tayyorlik	Ijtimoiy kapital nazariyasi	Ustuvor resurslarga kirishni osonlashtiradi
5. Baholash mexanizmi	Qaror qabul qilish darajasi (o'ziga ishonch, mustaqil tahlil)	Likert shkalasi, testlar orqali	Ta'lim dasturlarining psixologik ta'sirini o'lchaydi
	Motivatsiya indeksleri (ichki va tashqi motivlar)	Motivatsion diagnostika metodikasi	Moliyaviy ta'limdan so'nggi holat tahlili
	Tadbirkorlik faoliyatining o'zgarishi (registratsiya, daromad o'sishi)	Rasmiy statistik ma'lumotlar, monitoring	Moliyaviy savodxonlik dasturining iqtisodiy samarasi

²³ Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy axborotni qayta ishlash tezligi esa evristikalar va fikrlash xatoliklari nazariyasi yordamida tahlil qilinadi, bu noto'g'ri qarorlarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Muqobil variantlarni solishtirib tanlay olish salohiyati esa boshqaruv nazariyalari doirasida ko'riladi va bu raqobatbardosh iqtisodiy qarorlarni tanlash imkonini beradi.

To'rtinchi komponent — tadbirkorlikka moyillik — moliyaviy bilimlarning real iqtisodiy faollikka aylanish bosqichini ifodalaydi. Yangi g'oyalar yaratish va innovatsiyalarga ochiqlik shaxsiy tadbirkorlik xususiyatlarini (entrepreneurial traits) namoyon etadi va bu moliyaviy ta'lim bilan uyg'unlashganda yuqori darajadagi iqtisodiy tashabbusni shakllantiradi. O'z biznesini boshlash istagi esa motivasion psixologiya asosida moliyaviy savodxonlikdan keyingi motivatsion o'sish sifatida qaraladi. Tarmoq qurish va hamkorlikka tayyorlik esa ijtimoiy kapital nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning resurslarga kirish imkoniyatini oshiradi va biznes muhitda muvaffaqiyat ehtimolini kuchaytiradi.

Oxirgi, beshinchi komponent – baholash mexanizmi – ilgari surilgan ta'lim va psixologik omillarning natijaviyligini o'lchash vositasi hisoblanadi. Qaror qabul qilish darajasi (masalan, o'ziga ishonch va mustaqil fikr yuritish) Likert shkalasi, testlar va kuzatuvlar orqali o'lchanadi. Ichki va tashqi motivatsiyalarni aniqlash uchun esa motivatsion diagnostika metodikalari qo'llaniladi. Nihoyat, tadbirkorlik faoliyatidagi o'zgarishlar – masalan, biznes subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish soni va daromadlar o'sishi – rasmiy statistik ma'lumotlar va monitoring asosida baholanib, moliyaviy savodxonlik dasturining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga imkon beradi (5-jadval).

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda individual moliyaviy savodxonlik darajasi, tadbirkorlik salohiyati va iqtisodiy faollikni aniqlashda bir qator turli nazariy yondashuvlar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishi zarur. Ayniqsa, inson omilining kognitiv, psixologik va ijtimoiy jihatlarini qamrab oluvchi kompleks modelni yaratish — empirik va nazariy jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi. Shunday asosiy yondashuvlardan biri bu inson kapitali nazariyasi bo'lib, u bilim va ko'nikmalarni iqtisodiy o'sishning fundamental manbai sifatida qaraydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, moliyaviy ta'lim – maktabda, oliy ta'limda yoki amaliy treninglar shaklida — bevosita iqtisodiy samaradorlikka, daromadlar o'sishi va bandlikning ortishiga olib keladi. Shu tariqa, modelda bu nazariya moliyaviy ta'limning real iqtisodiy natijaga ta'sirini asoslab beradi.

Ikkinchi muhim yondashuv – bu kognitiv iqtisodiyot bo'lib, u iqtisodiy qarorlar ko'pincha mantiqiy emas, balki emotsional, intuitiv yoki irratsional asosda qabul qilinishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya yordamida modellar shaxsning moliyaviy xatti-harakatlari, riskka nisbatan munosabati, investitsion tanlovlari va hatto xatoliklar orqali shakllangan moliyaviy strategiyalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Modelda bu yondashuv moliyaviy qaror qabul qilish jarayonini, shuningdek, motivatsiyaning ichki mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Ilmiy yondashuvlar va ularning integratsiyalashgan modeli²⁴

Nazariya	Asosiy tushuncha	Ushbu modeldagi roli
Inson kapitali nazariyasi	Bilim va ko'nikmalar iqtisodiy o'sish asosidir	Moliyaviy ta'limning iqtisodiy natijaga olib kelishini asoslaydi
Kognitiv iqtisodiyot	Qarorlar emotsional, irratsional va intuitiv bo'lishi mumkin	Qaror qabul qilish va motivatsiyani tahlil qilishga xizmat qiladi
Ijtimoiy kapital nazariyasi	Tarmoq, ishonch va hamkorlik iqtisodiy muvaffaqiyatga olib keladi	Tadbirkorlikni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhitni o'lchaydi
Motivatsion psixologiya	Ichki va tashqi motivlar xulq-atvorni belgilaydi	Tadbirkorlikka intilishni shakllantirishdagi psixologik asoslar

Ijtimoiy kapital nazariyasi esa modelga ijtimoiy o'lchamni qo'shadi. Unga ko'ra, tarmoq aloqalari, ishonch, hamkorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash iqtisodiy muvaffaqiyatga erishishda muhim vositadir. Ushbu nazariya tadbirkorlikni faqat individual tashabbus sifatida emas, balki ijtimoiy kontekstda qaraydi. Shunday qilib, modelda bu nazariya yordamida tarmoq qurish, jamiyatda ishonchni shakllantirish, resurslarga kirish va tajriba almashish imkoniyatlari o'lchab boriladi (6-jadval).

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, bu sohada hali ham yetarlicha muammolar mavjud.

Moliyaviy bilimlar bo'yicha savollarga berilgan javoblarning taqsimlanishi²⁵

Savol turi	To'g'ri javob berganlar		Noto'g'ri javob berganlar	
	Soni	Ulushi	Soni	Ulushi
Oddiy bo'lish	133	92%	11	8%
Pulning vaqt qiymati	117	81%	27	19%
Asosiy qarz va foizlarni hisoblash	95	66%	49	34%
Murakkab foizlarni hisoblash	70	49%	74	51%
Xavf va daromad	75	52%	69	48%
Inflyatsiya	98	68%	46	32%
Diversifikatsiya	81	56%	63	44%

IHTT namunasi asosida ishlab chiqilgan so'rovnoma respondentlarning moliyaviy bilimlarini baholashga qaratilgan 7 ta, moliyaviy harakatlarni baholash bo'yicha 6 ta va moliyaviy munosabatlarga oid 2 ta, jami 15 ta savollarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, endogen omil sifatida respondentlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi olingan. Bundan tashqari, respondentga yashash joyi (qishloq yoki shahar), yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi va oilaviy holati yuzasidan 7 ta aniqlashtiruvchi savollar berildi. So'rovnomada moliyaviy bilimlar uchun 7 ball, moliyaviy harakatlar uchun 4 ball, moliyaviy munosabat uchun 2 ball, jami maksimal 13 ball yig'ish imkoni mavjud.

²⁴ Muallif ishlanmasi

²⁵ Muallif ishlanmasi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra quyidagilar aniqlandi:

1. Moliyaviy bilimlarga oid savollarda respondentlar maksimal 7 balldan 4,65 ball (yoki 66%) to‘plashgan, bunda 5 va yuqori ball (60%) to‘plaganlar ulushi 78% ni tashkil etdi.

“Murakkab foizlarni hisoblash” savolidan tashqari barcha savollarga to‘g‘ri javob darajasi 50% dan yuqori.

Ishtirokchilarning 92% “oddiy bo‘lish”, 81% “pulning vaqt qiymati”, 66% “asosiy qarz va foizlarni hisoblash”, 49% “murakkab foizlarni hisoblash”, 52% “xavf va daromad”, 68% “inflyatsiya”, 56% “diversifikatsiya” to‘g‘risidagi savollarga to‘g‘ri javob berishgan (7-jadval).

2. Moliyaviy harakatlarga oid savollarda ishtirokchilar maksimal 4 balldan 2,81 ball (yoki 65%) to‘plashgan, bunda 3 va yuqori ball (60%) to‘plaganlar ulushi 63% ni tashkil etdi (8-jadval).

8-jadval

60% dan yuqori to‘g‘ri javob berganlar²⁶

	Soni	Ulushi
Moliyaviy bilimlar	112	78%
Moliyaviy harakatlar	91	63%

Ishtirokchilarning 90% moliyaviy xarajatlar haqida qarorlarni shaxsan o‘zi (42%) yoki oila a‘zolari bilan maslahatlashib (48%) qabul qilishadi, 67% - xarajatlarini doimiy nazorat qilib borishadi, 68% - jamg‘arishning biron bir turidan foydalanishgan.

9-jadval

Respondentlarning demografik xususiyatlari²⁷

Jinsi	Soni	Ulushi	Toifasi	Soni	Ulushi
Ayol	33	23%	Shahar	84	58%
Erkak	111	77%	Qishloq	60	42%
Oilaviy holati	Soni	Ulushi	Ma‘lumoti	Soni	Ulushi
Oilali	114	79%	O‘rta	21	15%
Bo‘ydoq	24	17%	O‘rta maxsus	42	29%
Ajrashgan	6	4%	Oliy	81	56%
Yoshi	Soni	Ulushi	Kasbi	Soni	Ulushi
18-19 yosh	8	6%	Rahbar	21	15%
20-29 yosh	29	20%	Ishchi/xodim	70	49%
30-39 yosh	74	51%	O‘quvchi yoki talaba	12	8%
40-49 yosh	24	17%	Uy bekasi	7	5%
50-59 yosh	7	5%	Ishlamaydi	9	6%
60-69 yosh	2	1%	Pensiyada	4	3%
			Xususiy tadbirkor	9	6%
			Hunarmand/ O‘zini band qilgan	12	8%

Respondentlarning 18% jamg‘armalarini xorijiy yoki milliy valyutada uyda saqlagan, 15% keyinchalik sotish maqsadida mavsumda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olishgan, 7% bank omonlatlarida saqlagan, 6% chorva

²⁶Muallif ishlanmasi.

²⁷Muallif ishlanmasi.

hayvonlari xarid qilishgan, 6% “Gap o‘ynashgan”, 5% tanishlari biznesi uchun sarmoya kiritgan.

Ishtirokchilarning 65% so‘nggi 12 oy davomida moliyaviy xarajatlari daromadlaridan oshib ketganini qayd etishgan. Ushbu holatda 43% respondentlar kredit olmasdan o‘z moliyaviy holatini tiklashga harakat qilishgan. 15% qo‘shimcha ish topishgan, 13% yaqin qarindoshlaridan foizsiz qarz olishgan, 11% xarajatlarini kamaytirishgan, 2% o‘z omonotlaridagi mablag‘lardan foydalanishgan. Respondentlarning atigi 33% moliyaviy xizmatlardan foydalanishgan. Respondentlar asosan 17% valyuta ayirboshlash, 17% ipoteka krediti, 11% iste‘mol krediti, 10% debit kartalardan, 5% sug‘urta polislaridan foydalanishgan.

3. Moliyaviy munosabatlarga oid savollarda ishtirokchilar maksimal 2 balldan 0,98 ball (yoki 49%) to‘plashgan. Respondentlarning 66% pulni uzoq muddat jamg‘arishdan ko‘ra sarflashni afzal ko‘rishadi va 36% faqat bugungi kun bilan yashab kelajakdagi moliyaviy holatini o‘ylamasligini ta’kidlashgan.

10-jadval

Moliyaviy savodxonlik darajasi (60% dan yuqori to‘g‘ri javob berganlar)²⁸

Jinsi	Soni	Ulushi	Toifasi	Soni	Ulushi
Ayol	20	61%	Shahar	64	76%
Erkak	85	77%	Qishloq	41	68%
Oilaviy holati	Soni	Ulushi	Ma‘lumoti	Soni	Ulushi
Oilali	86	75%	O‘rta	12	57%
Bo‘ydoq	15	63%	O‘rta maxsus	24	57%
Ajrashgan	4	67%	Oliy	69	85%
Yoshi	Soni	Ulushi	Kasbi	Soni	Ulushi
18-19 yosh	3	38%	Rahbar	16	76%
20-29 yosh	24	83%	Ishchi/xodim	56	80%
30-39 yosh	51	69%	O‘quvchi yoki talaba	6	50%
40-49 yosh	21	88%	Uy bekasi	2	29%
50-59 yosh	6	86%	Ishlamaydi	6	67%
60-69 yosh	0	0%	Pensiyada	2	50%
			Xususiy tadbirkor	7	78%
			Hunarmand/ O‘zini band qilgan	10	83%

4. Yuqoridagi 3 ta yo‘nalish bo‘yicha berilgan javoblar asosida viloyatda moliyaviy savodxonlik darajasi 73% ni tashkil etdi. Respondentlarning 105 nafari yoki 73% berilgan maksimal 13 balldan 8 ball (60%) yoki undan ko‘p ball olishgan. Moliyaviy savodxonlik darajasi erkaklarda (77%), shaharda yashovchilarda (76%), oliy ma‘lumotlilarda (85%), oilalilarda (75%), 40-49 yoshlilarda (88%), hunarmand/o‘zini band qilganlarda (83%) yuqori ekanligi aniqlandi (10-jadval).

5. Moliyaviy savodxonlik darajasi bo‘yicha ayollar va erkaklar o‘rtasida farq mavjud. Erkaklar moliyaviy savodxonligi o‘rtacha darajasi (8,66 ball) ayollarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan (7,67 ball) 0,99 ballga yuqori.

²⁸Muallif ishlanmasi.

Jumladan, erkaklarda moliyaviy bilimlar ayollarga nisbatan 0,68 ball va moliyaviy harakatlari 0,49 ballga yuqori. Ayollar, ayniqsa, murakkab foizlarni hisoblash (-0,42 ball), xavfni boshqarish (-0,13), byudjetni rejalashtirish (-0,21 ball) va moliyaviy xizmatlardan foydalanish (-0,36) bo'yicha kamroq ball to'plashgan (10-jadval).

Lekin ayollar erkaklarga nisbatan pul jamg'arishga moyilroq. Ayollarning 48% (erkaklarning 30%) pul jamg'arishni afzal ko'rishini qayd etishgan. Ayollarning 61% hech qanday moliyaviy xizmatlardan foydalanishmagan.

6. Shahar va qishloqda yashovchilar o'rtasida moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha farq 0,54 ballni tashkil etdi.

Jumladan, shaharliklar pulning vaqt qadri (0,11 ball), oddiy foizlarni hisoblash (0,10), inflyatsiya (0,08) bo'yicha ko'proq ball to'plashgan.

Oliy ma'lumotli ishtirokchilarning o'rtacha bali viloyat o'rtachasidan 0,61 ball, o'rta-maxsus va o'rta ma'lumotli respondentlar o'rtachasidan mos ravishda 1,35, va 1,47 ball yuqori.

Xususiy tadbirkorlar (9 ball), rahbarlar (8,9), ishchi-xodimlar (8,73) va o'zini-o'zi band qilganlar (8,58) larning moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan yuqori, uy bekalari (6,14) va o'quvchi-talabalarning (7,5) moliyaviy savodxonligi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan kam.

Aholi moliyaviy savodxonligining tadbirkorlik faolligiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish uchun probit regressiya modelidan foydalanildi. Bunda bog'liq o'zgaruvchi sifatida respondentlarni kasbini (kasb) olamiz (tadbirkor bo'lsa 1, aks holda 0), mustaqil o'zgaruvchi respondentlarning moliyaviy savodxonlik darajasi (moliyaviy_s) va yashash manzil (yashash_mt), jinsi (jins), yoshi (yosh), ma'lumotini (malumot), oilaviy ahvolini (oila_ahvol), oila a'zolari sonini (oila_hajm) nazorat o'zgaruvchilar qilib kiritildi.

Probit modeli kasb tanlovining moliyaviy savodxonlik va boshqa nazorat o'zgaruvchilar ta'sirida qanday shakllanishini o'rganish uchun qulay vosita hisoblanadi. Probit regressiya modeli diskret (ikkilik) bog'liq o'zgaruvchi bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bizning holatda kasb turini (Y) moliyaviy savodxonlik (X) va nazorat o'zgaruvchilar (Z) orqali tushuntiriladi:

$$Y_i = \begin{cases} 1, & \text{agar individ i - kasbga ega bo'lsa} \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (1)$$

Probit modeli quyidagi shaklda yoziladi:

$$P(Y_i = 1 | X_i, Z_i) = \Phi(\beta_0 + \beta_1 X_i + \beta_2 Z_{i1} + \dots + \beta_k Z_{ik}) \quad (2)$$

Bu yerda: $\Phi(\cdot)$ - standart normal taqsimotning kumulyativ funksiyasi (CDF); β - baholanishi kerak bo'lgan parametrlar; X - asosiy mustaqil o'zgaruvchi (moliyaviy savodxonlik); Z - nazorat o'zgaruvchilar to'plami (yashash muhiti, yosh, jins, ta'lim, oilaviy holat, oilaning hajmi); Y - kasb turi (1 yoki 0).

Probit model parametrlarini Maksimal ehtimollik (MLE) usuli orqali baholaymiz. Likelihood funksiyasi quyidagicha yoziladi:

Oila hajmi ta'lim darajasi (-0.116) va oila holati (-0.265) bilan salbiy bog'liq bo'lib, bu ko'proq ta'lim olgan shaxslar kichikroq oilalarga ega bo'lishi mumkinligini bildiradi. Qolgan bog'liqliklar juda zaif bo'lib, multikollinearlik muammosi model natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Probit modelining natijalari to'g'ridan-to'g'ri talqin qilinmaydi. Shuning uchun, mustaqil o'zgaruvchilarning marginal ta'sirlarini hisoblash lozim:

$$\frac{\partial P(Y = 1|X, Z)}{\partial X} = \phi(X\beta) \cdot \beta_1 \quad (5)$$

bu yerda $\phi(\cdot)$ – normal taqsimotning zichlik funksiyasi. Pseudo R^2 ko'rsatkichi: Modelning umumiy aniqlash kuchini ko'rsatadi:

$$Pseudo - R^2 = 1 - \frac{L(\beta)}{L_0} \quad (6)$$

bu yerda L_0 – faqat konstanta o'z ichiga olgan modelning likelihood qiymati.

Probit regressiya natijalari tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni baholash imkonini beradi. Moliyaviy savodxonlik ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda (0.017), ya'ni moliyaviy savodxonlikni 1 % ga ortishi tadbirkorlar sonini 1,7 % ga oshiradi, hamda bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatga ega ($P=0.027$). Bu natija moliyaviy bilim darajasi yuqoriroq bo'lgan shaxslarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi ehtimoli oshishi mumkinligini ko'rsatadi, biroq bu bog'liqlikning kuchi cheklangan.

Respondentlar jinsi o'zgaruvchisi sezilarli ijobiy ta'sirga ega (0.162, $P<0.040$), bu esa kasb tanlashda gender farqlari mavjudligini bildiradi. Ya'ni erkaklarni tadbirkorlik bilan shug'ullanish ehtimoli ayollarga nisbatan 16,2 % ga yuqori. Ayollar yoki erkaklar o'rtasidagi kasbga yo'naltirilish ehtimolidagi farqlar mehnat bozorida gender ta'sirining muhimligini ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim darajasi ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish ehtimoliga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda (-0.203, $P<0.001$). Bunda oliy ma'lumotli respondentlarning tadbirkorlik qilish ehtimoli o'rta maxsus respondentlarga nisbatan – 20,3 % ga kamroq bo'lgan. Ushbu natija ta'lim darajasi yuqori bo'lgan shaxslarning tadbirkorlik qilish ehtimoli kamayishini anglatadi. Bunda yuqori malakaga ega bo'lgan shaxslarning ish bozorida boshqa omillar bilan farqlanishi yoki ularning kasb tanlashdagi mezonlari boshqacha bo'lishi mumkinligi ehtimoli mavjud.

Yashash muhiti, yosh, oila holati va oila hajmi o'zgaruvchilarining ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz ($P>0.05$), bu esa ushbu omillarning kasb tanlash ehtimoliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasligini anglatadi. Umuman olganda, jins va ta'lim darajasi eng muhim omillar sifatida ajralib turadi, moliyaviy savodxonlik esa ijobiy ta'sirga ega bo'lsa-da, uning ta'siri 1,7 % bilan cheklangan.

Respondentlar jins mehnat bozorida kasblarga yo'naltirilishda muhim rol o'ynaydi. Gender rollari va jamiyatdagi an'anaviy me'yorlar turli kasblarga kirish imkoniyatlarini chegaralashi yoki rag'batlantirishi mumkin. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi kasb tanlashdagi farqlar, odatda, mehnat bozori diskriminatsiyasi, oilaviy majburiyatlar va kasbiy ixtisoslashuvning gender jihatlari bilan izohlanadi.

Natijalar ta'lim darajasining kasb tanlash ehtimoliga salbiy ta'sir qilayotganini ko'rsatmoqda. Bu yuqori ta'limga ega shaxslarning kasb tanlash mezonlari boshqacha bo'lishi, ular yuqori malakali ish joylarini afzal ko'rishi yoki mehnat bozoriga chiqishdan oldin qo'shimcha ta'lim olishni talab qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

13-jadval

Aholi moliyaviy savodxonligi ulushi o'sishi prognoz ko'rsatkichlari³¹

Yillar	O'sish quyi chegaralari	Optimal o'sish sur'atlari	O'sish yuqori chegaralari
2024 y			
2025 y	106,5	108,3	112,5
2026 y	106,7	109,3	118,7
2027 y	106,6	109,9	112,3
2028 y	106,5	111,2	114,5
2029 y	106,4	113,9	116,9
2030 y	106,1	114,8	118,9

Oila holati va oila hajmi shaxsning iqtisodiy barqarorligi va mehnat bozoridagi harakatini belgilovchi omillar sifatida qaraladi. Oila majburiyatlari, ayniqsa, ayollar uchun kasb tanlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Natijalarga ko'ra, ushbu omillar kasb tanlash ehtimoliga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, bu esa shaxsiy va oilaviy omillarning kasbga oid qarorlarda boshqa omillarga nisbatan kamroq rol o'ynashini ko'rsatishi mumkin.

Stata dasturini forecasting modulidan foydalanib, 2030-yilgacha prognoz ishlab chiqildi (13-jadval).

14-jadval

2025–2030-yillarda moliyaviy savodxonlik darajasining prognozi (kompozit indekslar asosida)⁴⁶

Yil	Moliyaviy bilimlar	Moliyaviy xulq-atvor	Moliyaviy munosabat	Umumiy indeks
2025	3.8	4.0	4.1	3.97
2026	4.0	4.3	4.2	4.16
2027	4.3	4.5	4.4	4.40
2028	4.5	4.7	4.5	4.56
2029	4.7	4.9	4.7	4.77
2030	5.0	5.0	5.0	5.00

Moliyaviy savodxonlik darajasining istiqboldagi rivojlanish sur'atlarini aniqlash maqsadida kompleks indekslar asosida prognozlash ishlari amalga oshirildi. 14-jadvaldan ko'rinib turibdiki, prognoz davrida aholi moliyaviy savodxonligi tarkibiy ko'rsatkichlarining bosqichma-bosqich o'sishi kuzatiladi. 2030-yilga kelib, barcha tarkibiy elementlar bo'yicha 5.0 ballik maksimal ko'rsatkichga erishilishi taxmin qilinmoqda.

Dissertatsiyaning “**O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari tarkibida tadbirkorlikni

³¹ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.

rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar salmog‘ini kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishda aholi moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish dastak va vositalaridan foydalanish, mahalla instituti va “mahallabay” ishlash tizimini takomillashtirish orqali aholi moliyaviy savodxonligi va tadbirkorlikning rivojlanganlik darajalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mahalliy miqyosda moliyaviy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirish zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarining bir-birini to‘ldiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi integratsiyasini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, nomarkazlashgan boshqaruv va jamoaviy rivojlanish modeli asosida ishlab chiqilgan yondashuv moliyaviy bilimlarni aholiga yaqinlashtirish, iqtisodiy faollikni mahalliyashtirish va inklyuziv rivojlanishni ta‘minlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Birinchi asosiy komponent — nomarkazlashgan boshqaruv (decentralization) — boshqaruv vakolatlarining mahalliy darajaga taqsimlanishini anglatadi. Bu yondashuvda mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy ta‘lim dasturlarini mustaqil amalga oshirishi nomarkazlashgan boshqaruv nazariyasi asosida talqin etiladi. Natijada, hududiy darajada resurslar va vakolatlar moslashuvchan tarzda taqsimlanadi, bu esa aholining real ehtiyojlariga asoslangan amaliy loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy tadbirkorlik fondlarining tashkil etilishi esa fiskal avtonomiya tamoyiliga asoslanib, joyida iqtisodiy tashabbuslarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, qishloq va turar joy punktlarida moliyaviy maslahat markazlarining ochilishi hududiy boshqaruv samaradorligi nazariyasi asosida aholiga xizmatlarning bevosita yaqinlashtirilishini ta‘minlaydi.

Ikkinchi komponent — jamoaviy taraqqiyot modeli — aholi ishtirokini faollashtirish va bilim almashinuvi orqali barqaror rivojlanishga erishishni maqsad qiladi. Mahalliy darajada tashkil etilgan moliyaviy savodxonlik klublari, mahalla va fuqarolik jamiyati bilan birgalikdagi loyihalar Paulo Freire ning jamoaviy o‘rganish modeli va ijtimoiy kapital nazariyasi asosida ijtimoiy ishonch va tarmoq qurishni kuchaytiradi. Bu orqali bilimlar faqat “yuqoridan pastga” emas, balki “gorizontal” yo‘nalishda ham tarqatiladi. Shu bilan birga, kooperativ rivojlanish modeli asosida faoliyat yurituvchi mahalliy tadbirkorlik inkubatorlari — raqamli va amaliy maydonlarda bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

Uchinchi muhim komponent — institutsional hamkorlik — davlat, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati subyektlari o‘rtasida resurs, vakolat va tajriba almashinuvini anglatadi. Davlat va NNTlar o‘rtasida tuziladigan hamkorlik memorandumlari institutsional nazariya asosida tushuntiriladi va bu turli sektorlar o‘rtasida uzoq muddatli va barqaror aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Moliyaviy ta‘lim va tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan qo‘shma moliyalashtirish dasturlari esa muloqotli boshqaruv nazariyalari asosida moliya taqsimoti, natijaviylik va samaradorlikni muvofiqlashtiradi. Monitoring va baholashning qo‘shma platformalari esa ko‘p tomonlama boshqaruv (multi-stakeholder governance) doirasida natijalarni izchil kuzatish, ochiqlik va javobgarlikni ta‘minlashda muhim vosita bo‘ladi.

Mahalliy moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirishda nomarkazlashgan boshqaruv va jamoaviy model integratsiyasi³²

Asosiy komponentlar	Elementlar / mexanizmlar	Ilmiy asos / nazariya	Modeldagi funksional roli
1. Nomarkazlashgan boshqaruv	Mahalliy hokimiyatlar moliyaviy ta’lim dasturlarini amalga oshirishi	Nomarkazlashgan boshqaruv nazariyasi	Resurs va vakolatlarni joylarga taqsimlash orqali moslashuvchanlikni oshiradi
	Mahalliy darajadagi tadbirkorlik fondlari	Fiskal avtonomiya	Tadbirkorlik tashabbuslarini joyida qo‘llab-quvvatlash
	Qishloq/yashash punktlarida moliyaviy maslahat markazlari	Hududiy boshqaruv samaradorligi nazariyasi	Moliyaviy bilimlarni aholiga yaqinlashtirish
2. Jamoaviy taraqqiyot modeli	Jamoat asosida tashkil etilgan moliyaviy savodxonlik klublari	Jamoaviy o‘rganish modeli (Paulo Freire, senengagement)	Ijtimoiy ta’sir orqali bilim almashinuvi
	Mahalla, NNT va fuqarolik jamiyati hamkorlik loyihalari	Ijtimoiy kapital nazariyasi	Tarmoq va ishonchga asoslangan taraqqiyot
	Mahalliy tadbirkorlik inkubatorlari	Kooperativ rivojlanish modeli	Raqamli va gibrid o‘quv + amaliy maydonlar
3. Institutsional hamkorlik	Davlat va NNT o‘rtasidagi hamkorlik memorandumlari	Institutsional nazariya	Resurslar, tajriba va vakolatlarning bo‘linishi
	Qo‘shma moliyalashtirish dasturlari (grant, subsidiya, hamkorlik krediti)	Muloqotli boshqaruv nazariyalari	Moliya taqsimoti va natija o‘lchovlarining uyg‘unlashuvi
	Monitoring va baholash bo‘yicha qo‘shma platformalar	Ko‘p tomonlama boshqaruv (multi-stakeholder governance)	Natijaviylikni kuzatish va javobgarlikni ta’minlash
4. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari	Tadbirkorlik loyihalari sonining oshishi	Mahalliy statistika	Rag‘batlantirish siyosatining samarasi
	Mahalliy bandlik darajasining oshishi	Mehnat bozori tahlili	Yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlar bahosi
	Davlat va NNT tomonidan birgalikda moliyalashtirilgan loyihalarning soni	Budjet va hisobot ma’lumotlari	Hamkorlikning moliyaviy sur’ati va kengayishi
	Qatnashuvchilar soni va ularning demografik tahlili	Monitoring va baholash tizimlari	Rag‘batlantirish dasturlarining inklyuzivlik darajasi

To‘rtinchi komponent — iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari — barcha dastur va mexanizmlarning real ta’sirini aniqlovchi indikatorlardir. Mahalliy darajada ochilgan tadbirkorlik loyihalari sonining ortishi, bandlik darajasining o‘shishi va birgalikda moliyalashtirilgan loyihalar sonining ko‘payishi bu dasturlar samaradorligining asosiy mezonlaridan hisoblanadi.

